

**GIDROGEOLOGIYA VA INJENERLIK GEOLOGIYASI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.24/30.12.2019. GM.96.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**ERMATOVA YAYRA SAYDULLAYEVNA**

**CHORVOQ BOTIQLIGINING KURORT ZONALARI GEOEKOLOGIK  
SHAROITINI SAQLASHDA TABIIY VA TEXNIK TIZIMLAR  
MONITORINGIGA KOMPLEKS YONDASHUV**

**04.00.04 – Hidrogeologiya va muhandislik geologiyasi**

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI  
bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Ermatova Yauya Saydullayevna**

Chorvoq botiqligining kurort zonalari geoeologik sharoitini saqlashda  
tabiiy va texnik tizimlar monitoringiga kompleks yondashuv.....3

**Эрматова Яйра Сайдуллаевна**

Комплексный подход к мониторингу природных и технических  
систем при сохранении геоэкологических условий курортных зон  
Чарвакской котловины.....21

**Ermatova Yauya Saydullayevna**

A comprehensive approach to monitoring natural and technical systems while  
preserving the geoeological conditions of the Charvak basin resort zones.....39

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

Список опубликованных работ  
List of published works .....43

**GIDROGEOLOGIYA VA INJENERLIK GEOLOGIYASI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.24/30.12.2019.GM.96.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**ERMATOVA YAYRA SAYDULLAYEVNA**

**CHORVOQ BOTIQLIGINING KURORT ZONALARI GEOEKOLOGIK  
SHAROITINI SAQLASHDA TABIIY VA TEXNIK TIZIMLAR  
MONITORINGIGA KOMPLEKS YONDASHUV**

**04.00.04 – Hidrogeologiya va muhandislik geologiyasi**

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI  
bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/GM248 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.hydroengeo.uz](http://www.hydroengeo.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Zakirov Mirabbas Mirsaatovich**  
geologiya-mineralogiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy oponentlar:** **Abdullayev Botir Dadajonovich**  
geologiya-mineralogiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:** **Tadjibayeva Nodira Ruziyevna**  
geologiya-mineralogiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

**"O'zbekgidrogeologiya" Davlat muassasasi**

Dissertatsiya himoyasi Hidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/30.12.2019.GM.96.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «10» sentyabr soat 10-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100041, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-uy. Telefon.: (+99871) 209-10-79, faks: (+99871) 209-10-84, e-mail: gidro\_ilmkeng@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Hidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (63 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100041, Olimlar ko'chasi, 64-uy. Telefon.: (+99871) 209-10-79, faks: (+99871) 209-10-84, e-mail: gidro\_ilmkeng@mail.ru.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «19» avgust kuni tarqatildi.  
(2025-yil «19» avgust dagi 12 raqamli reyestr bayonnomasi).



**A.A. Mavlonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
geologiya-mineralogiya fanlari doktori,  
katta ilmiy xodim

**M.R. Jurayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
geologiya-mineralogiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
katta ilmiy xodim

**I.X. Xabibullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi,  
texnika fanlari doktori,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda geokologik sharoitlarni saqlab turishda tabiiy va texnik tizimlar rejimining monitoringi mintaqaviy va mahalliy miqyosdagi turli geologik, muhandis-geologik, ekologik va ijtimoiy muammolarni hal qilish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Monitoring natijalari nafaqat bashoratlashning ishonchliligini asoslashda, balki muhandis-geokologik tadqiqotlar natijalarining iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Bu borada texnogen ta'sirni har tomonlama o'rganish va noqulay muhandis-geokologik vaziyatlarni aniqlash ma'lum mintaqaning barqaror ijtimoiy iqtisodiy-rivojlanishining muhim omili hisoblanadi.

Jahon miqyosida muhandis-geokologik sharoitlarni saqlab qolish uchun tabiiy va texnik tizimlar monitoringini olib borishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan atrof-muhit elementlarining geologik va texnogen omillarga bog'liqligini ilmiy asoslashga, shuningdek, kurort zonalarining muhandis-geokologik sharoitlaridan samarali foydalanishga va ularni saqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda kurort zonalarining tabiiy va muhandis-geokologik sharoitlarining holatini baholash, ulardan maqsadli foydalanishni nazorat qilish va hisobini yuritishni tartibga solish, ob'ektlarning zamonaviy holatini geoaxborot texnologiyalari asosida baholashga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda xamda muayan yutuqlarga erishilmoqda. "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"<sup>1</sup>gi farmonida, "...aholi uchun qulay ekologik sharoitlar yaratish", "...makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlanishni zarur darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan ta'minlash", vazifalari belgilab berilgan. Bu borada, Chorvoq botiqligining kurort zonolari geokologik sharoitini shakllanishi va rivojlanish mexanizmlarini baholash bo'yicha tadqiqotlarni olib borish muxim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son, 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi"gi farmonlari hamda 2017-yil 5-dekabrda "Chorvoq erkin turistik zonasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5273-son qaroriga muvofiq, shuningdek, ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlarda va qarorlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VIII "Yer haqidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyoni qayta ishlash)" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi «O'zbekiston 2030 strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son farmon.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Hozirgi kunda muhandis-geoeologik sharoitlarni o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yetakchi ilmiy markazlar, institutlar va oliy o'quv yurtlarida olib borilmoqda. Ilk bor 1979-yilda E.M. Sergeev tomonidan muhandislik geologiyasi fanini geologik muhit (GM) haqidagi fanga aylantirish g'oyasi bildirilgan hamda o'sha vaqtdan boshlab geologik muhitdan oqilona foydalanish va uni himoya qilish konsepsiyasi rivojlanmoqda. F.V. Kotlovning fikriga ko'ra (1972) GMdagi antropogen o'zgarishlarning yo'nalishi va muntazamligi mintaqaviy geologik, zonal-iqlim, litologik va antropogen (inson faoliyati) omillar bilan chambarchas bog'liq. GM nafaqat inson va litosferaning yuqori gorizonti bilan o'zaro ta'sir sohasi bo'lib, u umuman litotexnik tizim doirasida ko'rib chiqiladi. V.A. Korolyov ushbu g'oyani baholab, geologik muhit vaqt o'tishi bilan miqdoriy (texnogen ta'sirlarning o'sishi tufayli geologik muhit hajmining o'sishi), sifat jihatidan (geologik muhit holatining o'zgarishi) o'zgaradi va rivojlanadi, deb yozgan. 1991-yil boshida V.T. Trofimov yangi ekologik geologiya ilmiy maktabi yo'nalishiga asos solgan. 1997-yilda "Ekologik geologiya nazariyasi va metodologiyasi" nomli monografiyasini nashr ettirdi, unda litosferaning ekologik funksiyalarining vazifalari, yo'nalishlari, predmeti va izlanish obyekti shakllantirilgan. Shunday qilib, yetakchi olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, geologik muhitdan oqilona foydalanish tushunchasi geologik muhitdan samarali foydalanish muammosini ilmiy asoslangan, texnologik jihatdan to'g'ri va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hal qilishni anglatadi.

Hozirgi kunda mazkur masala bo'yicha shunday xulosa qilish mumkinki, geologik muhitga intensiv texnogen yuklama sharoitida tabiiy muhofaza qilinadigan hududlarda turli xil inshootlar va turar-joy massivlarini joylashtirishning optimal variantlarini, shuningdek, Chorvoq botiqligi kurort zonalarining geoeologik sharoitlarini saqlash uchun tabiiy va texnik tizimlarning monitoringiga kompleks yondashuv bo'yicha chora-tadbirlar tizimlarini aniqlash juda muhimdir.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Gidrogeologiya, muhandislik geologiyasi va petrografiyasi" kafedrasining kunning 2-yarmida bajariladigan ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Chorvoq suv ombori kurort zonasining geoeologik sharoitlarini saqlab qolish uchun tabiiy-texnik tizimni monitoring qilishga kompleks yondashuv" (2021-2023 yillar) va GE-2023/09-3 "Chorvoq suv ombori qirg'oq zonalarining geoeologik sharoitini o'ziga xos xususiyatlari" (2023-2024 yillar) mavzularidagi ilmiy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Chorvoq kurort hududining muhandis-geologik va geoeologik sharoitlarini saqlashda tabiiy va texnik tizimlar monitoringiga kompleks yondashuvdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

Chorvoq havzasi geoeologik sharoitlarining muhandis-geologik va texnogen o'zgarishlarini belgilovchi tabiiy omillarni o'rganish va aniqlash uchun dunyo hamda respublika miqyosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;

texnogenez ta'sirini baholash uchun Chorvoq havzasi qirg'oq zonasining muhandis-geologik va geoekologik sharoitlarini o'rganish;

geoekologik vaziyatni baholash maqsadida Chorvoq suv ombori ta'sir zonalarini ajratish uchun kompleks yondashuv;

texnogen ta'sirlarga bardoshlilik darajasiga ko'ra Chorvoq havzasi kurort zonalarining sxematik muhandislik-geologik rayonlashtirish xaritasini tuzish.

**Tadqiqot obyekti** Chorvoq havzasi hududi qirg'oq zonalarining muhandis-geologik va geoekologik sharoitlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** muhandislik-geologik va geoekologik sharoitlarning o'zgarishiga Chorvoq suv ombori qirg'oq zonalarining ta'sirini baholashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada gidrogeologik, muhandislik-geologik va muhandislik-geoekologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan an'anaviy usullar, shu jumladan suv omborini to'ldirish, kamaytirish va ekspluatatsiya jarayonida qirg'oq zonalarini har tomonlama o'rganish, jarayonlar va hodisalarning rivojlanishini ixtisoslashtirilgan kuzatuvlar, kartografik, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash hamda antropogen ta'sirni baholash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Chorvoq havzasi qirg'oq zonasining tadqiqot hududi muhandis-geologik va geoekologik sharoitlariga texnogen ta'sirini shakllantiruvchi asosiy omillar aniqlangan;

turli fizik-geografik va nisbiy balandliklarda zonal holatlariga ko'ra (baland va o'rta tog'li, past tog'li, tog'oldi, tog'oldi prolyuvial tekislik) jarliklar shakllanish bosqichlarining asosiy omillari asoslangan;

Chorvoq suv ombori sathi mavsumiy tebranishlarining atrof-muhit komponentlariga ta'siri aniqlangan va ko'l tubi hamda unga tutash hududlar kengayuvchi landshaftlarining muhandis-geoekologik sharoitlari baholangan;

texnogen ta'sirlarga bardoshlilik darajasiga ko'ra Chorvoq suv ombori kurort zonalarini hududining sxematik muhandis-geologik rayonlashtirish xaritasi tuzilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

geologik muhit ekologik holatining barqarorligini ta'minlash maqsadida urbanizatsiya bosqichida bo'lgan Chorvoq suv ombori kurort zonalarini hududining muhandis-geoekologik sharoitlari baholangan;

texnogen ta'sirlarga bardoshlilik darajasiga ko'ra Chorvoq havzasi kurort zonalarining sxematik muhandislik-geologik rayonlashtirish xaritasi rekreatsion obyektlarni joylashtirish uchun tuzilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Olingan natijalarning ishonchliligi 100 ta quduq va 60 ta tog' kavlamalaridan olingan katta hajmdagi daliliy materiallar ma'lumotlarining retrospektiv tahlili, gruntlarning fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha 250 ta laboratoriya tajribalari, yer osti suvlari namunalari 80 ta laboratoriya tahlillari, kurort zonalarining geoekologik sharoitlarini saqlashda tabiiy-texnik tizimlar monitoringiga kompleks yondashuv va Chorvoq suv ombori qirg'oq zonalarida geologik va muhandis-geologik jarayonlarning namoyon bo'lish natijalari bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, muhandis-geoekologik vaziyatning o'ziga xos

xususiyatlarini belgilovchi asosiy tabiiy va texnogen omillar asoslangan va Chorvoq suv ombori qirg' oq zonalarining urbanizatsiyalashgan hududlarida sifat va miqdoriy ko'rsatkichli uchastkalarini asosli ajratish bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tuzilgan geologik va muhandis-geologik jarayonlar va hodisalarning tarqalish xaritalari Chorvoq suv ombori kurort zonolari tabiatidan foydalanishda hududni oqilona rejalashtirishdan iborat bo'lib, texnogen ta'sirlarga bardoshlilik darajasiga ko'ra Chorvoq suv ombori kurort zonolari hududining sxematik muhandis-geologik rayonlashtirish xaritasi rekreatsion obyektlarni joylashtirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Chorvoq suv ombori qirg' oq zonasi geoeologik sharoitlari ilmiy natijalariga ko'ra:

hududning muhandis-geoeologik holatini baholash metodikasi "Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti" davlat muassasasining ilmiy-faoliyatiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 25-oktyabrdagi 08-3951-son ma'lumotnomasi). Natijada urbanizatsiyaning dastlabki bosqichida bo'lgan Chorvoq suv ombori qirg' oq zonasi muhandis-geoeologik holatining barqarorligini baholash imkoni yaratilgan;

kompleks va batafsil tadqiqotlar natijalari asosida jarliklarning shakllanish bosqichlarini aniqlashning asosiy omillari "Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti" davlat muassasasining ilmiy-amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 25-oktyabrdagi 08-3951-son ma'lumotnomasi). Natijalar hududda jarliklarning zonal joylashuvi bo'yicha ajratish usullarini takomillashtirish imkonini bergan;

suv omborlari mavsumiy ritmining o'zgarishi ta'sirida suv bosgan hududlar landshaftlarining o'zgarishi "Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti" davlat muassasasining ilmiy-amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 25-oktyabrdagi 08-3951-son ma'lumotnomasi). Natijada suv omborining geoeologik muhitga ta'sirini zonallashtirishda fazoviy usuldan foydalanishning xususiyatlarini baholash imkoni yaratilgan;

Chorvoq suv ombori hududini sxematik muhandislik-geologik rayonlashtirish sxematik xaritasi "Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti" davlat muassasasining ilmiy faoliyatiga joriy qilingan. (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 25-oktyabrdagi 08-3951-son ma'lumotnomasi). Natijada hududlarni texnogen ta'sirlarga chidamlilik darajasi bo'yicha oqilona ajratish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan 7 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 111 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, maqsadi, vazifalari shakllantirilgan. Tadqiqot obyekti, ilmiy yangiliklar va amaliy natijalar bayon qilingan va olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, shuningdek nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot asoslangan, undan tashqari tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Chorvoq botiqligining geoeologik sharoitlari va o‘rganilganlik holati”** nomli birinchi bobi to‘rt qismdan iborat bo‘lib, unda tabiatni muhofaza qilishning geologik – tektonik, gidrogeologik sharoitlari, shuningdek, Chorvoq suv ombori kurort zonalarining geoeologiyasi va muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar mavjud. O‘tkazilgan izlanishlar va fond materiallarining tahlili natijasiga ko‘ra, to‘rtlamchi davr yotqiziqlari o‘rganilayotgan hududda keng tarqalgan bo‘lib, paleozoy yotqiziqlarining qoplamasi bo‘lib xizmat qiladi. Ular to‘rtta bo‘limga ajratilgan va quyidagi komplekslarga mos keladi: quyi to‘rtlamchi – Nanay ( $Q_I$  n) kompleksi; o‘rta to‘rtlamchi – Toshkent ( $Q_{II}$  ts) kompleksi; yuqori to‘rtlamchi – Mirzacho‘l ( $Q_{III}$  gl) kompleksi; hozirgi zamon to‘rtlamchi – Sirdaryo ( $Q_{IV}$  sd) kompleksi. Gidrogeologik jihatdan deyarli barcha davrga mansub bo‘lgan darzlangan tog‘ jinslaridagi yer osti suvlari ichimlilikka yaroqli sifatleri bilan ajralib turadi; allyuvial galechniklarga mansub bo‘lgan yer osti grunt suvlarining katta zaxiralari mavjudligi va ularning ishlatish uchun qulay sharoit mavjudligi tufayli suv ta‘minoti uchun mos keladi; buloqlar shaklida namoyon bo‘ladigan yer osti suvlari, fizik-geologik jarayon va hodisalarning rivojlanishiga ta‘sir qiladi, xususan, ko‘chkilar va hokazo; ko‘pincha buloqlar yoriqlarining darzlangan zonalariga, ya‘ni tektonik yoriqlar zonalarini bilan chegaralangan. Bundan tashqari, Chorvoq vohasining so‘lim hududida mavjud qadimiy afsonalarga boy tarixiy obidalar alohida o‘rin tutadi, ularning muhandis-geoeologik holatini o‘rganish Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va arxeologiyasi fani va madaniyati uchun katta ahamiyatga ega. Izlanish hududida olimlar tomonidan milodiy V-VIII asrlarga mansub qadimiy aholi punktlari, qabristonlar va ziyoratgohlar sirlarini saqlaydigan ko‘plab qadimiy arxeologik obidalar mavjud. Ularning barchasi davlat muhofazasiga olingan va O‘zbekiston Respublikasining yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan.

Chorvoq suv omborining faoliyati davridagi geologik muhitning eng muhim o‘zgaruvchan elementlari, gidrogeologik sharoit bo‘lib, unda suv omboridagi suvning oqimini tartibga solish va yuqori darajadagi sathning pasayish sharoitlarini sozlash hisoblanadi. Uning to‘ldirilishi davrida, suv omborlariga xos jarayonlar rivojlanishi aniqlandi: abraziya, havza tubida loyqa qatlamlar yeg‘ilishi, yangi qirg‘oq rel‘yef shakllarining shakllanishi, suv o‘simliklarining shakllanishi va

hokazo. Suv ombori sathining to'liq kamayishi natijasida, tubini to'liq drenajlash bilan birga, yer usti ekotizimlariga xos jarayonlar rivojlanadi: yer usti o'simliklari hosil bo'ladi, jarlik shakllanishi jarayonlari ochiq terrasalarda jadal rivojlanadi.

Dissertatsiyaning **“Chorvoq kurort zonalarining texnogen ta'sirlarga bardoshlilik darajasini o'rganish metodikasi”** nomli ikkinchi bobi ikki qismdan iborat. Suv omborlari va gidrotexnik inshootlarni qurish usullari ko'rib chiqilganda, har bir aniq mintaqaning mavjud ekologik sharoitlariga inson faoliyati kirib kelishi aniqlangan. Umuman olganda, suv omborlari geologik muhitning tarkibiy qismlariga ta'sir qiluvchi tabiiy va texnogen tizim bo'lib: geomorfologik va yer yuzasini tashkil qiluvchi tog' jinslarning sharoitlari, yer usti va yer osti suvlarining rejimi, tabiiy iqlim, o'simlik va hayvonot dunyosi kabilar kiradi.

Suv omborlarining qurilishi va ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan turli muammolar va ularning geologik muhitga ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ko'plab ilmiy-uslubiy ishlar ma'lum. Ular qatoriga G.A. Mavlonov, M.Sh.Shermatov, G.X. Umarova, S.A. Makarov, T.G. Ryashchenko, V.V. Akulova, V.S. Kuskovskiy, R.A. Niyazov, V.D. Minchenko, X.M. Toshmatov, A.M.Xonxodjayev, G.A. Bimurzayev, V.V. Kulakov, A.N. Maxinov, V.I. Kim, E.A.Kozireva, A.Ribchenko, A.Sh. Xabidov, E.A. Fedorova, M.M. Zakirov, I.A.Agzamova, D.Q. Begimqulov, Ya.S. Ermatova va boshqalarning ilmiy ishlari kiradi. Ushbu izlanish natijalarida Oltoy-Sayan viloyatidagi, Krasnoyarsk, Burey, Chorvoq, Ohangaron kabi suv omborlari va Sarez ko'lining to'lishi davridagi birinchi va keyingi yillarga tegishli tadqiqotlar natijalari umumlashtirilgan. Shu bilan birga, qirg'oq jarayonlarining rivojlanishi, qirg'oqni qayta ishlanish tezligi va havza tubida cho'kindilarning shakllanishi bo'yicha ixtisoslashtirilgan kuzatuvlar o'tkazilgan. Bundan tashqari, suv omborlarining qirg'oq zonalarining muhandis-geoeologik izlanishlar davomida suv ombori ta'sirida geologik muhitning o'zgarishini bir qator metodik usullar va baholash orqali ta'riflangan.

Shunday qilib, Chorvoq suv omborining qirg'oq zonasining geoeologik muammolarini hal qilish uchun asos bo'lgan geologik, muhandis-geologik va geoeologik baholash bo'yicha tadqiqotlar tahlil qilindi. Muammolarni hal qilish regionlar hududini uzoq muddatli rivojlantirish bo'yicha takliflar va tabiiy tizimlarning barqarorligini saqlash va tiklashga qaratilgan atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Chorvoq suv omborining qirg'oq zonasi geotizimlarini har tomonlama kompleks geoeologik baholash hududni regional rejalashtirish uchun obyektiv asos hisoblanadi.

Turli tabiiy va texnogen omillarning o'zaro bog'liqligi (Chorvoq suv omborining holati, atmosfera havosi, tuproqli qatlamlar va yashil maydonlardagi o'simlik dunyosi, tabiiy-rekreatsioon hududlarning mavjudligi) turistik hududlarning geoeologik qulayligini aholi yashashi uchun va Chorvoq suv ombori qirg'og'ining o'ziga xos qismida vaqtincha qolib yashash joylarini muhit sifatida belgilaydi. Chorvoq suv omborining qirg'oq zonasi an'anaviy ravishda ommaviy dam olish tadbirlarini tashkil qilish uchun ishlatiladi. Biroq, uning nazoratsiz va intensiv ravishda o'zlashtirilishi Chorvoq havzasi kurort zonalarining geoeologik muhitida salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Tabiatning jamiyat bilan o'zaro ta'siri tabiatni oqilona rivojlantirish imkoniyatlariga, hududlar (davlat va xususiy dam

olish maskanlari, pansionatlar qurilishi) ni texnologik zarurat asosida o'rganish va ushbu hududga xos ekotizimning tabiiy mavjudligi o'rtasida ilmiy muhosalar topishga qaratilgan bo'lishi kerak. Chorvoq suv ombori qirg'oqbo'yi zonasidagi tabiiy muhitining ifloslanishiga qarshi kurash hozirgi kunga qadar asosan an'anaviy texnologiyalar asosida tabiat hodisalarining chiqindilarini olib chiqish orqali amalga oshirilmoqda. Chorvoq suv ombori hududining geokologik va xo'jalik muvozanati konsepsiyasi muhandislik faoliyatining har xil turlari va o'rganilayotgan hududdagi turli tashkilotlar va aholi manfaatlarining mutanosib nisbati Tabiat va jamiyatning barqaror rivojlanishini, tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan va salbiy oqibatlar va ekologik o'zgarishlarni keltirib chiqarmaydigan geokologiyaning real imkoniyatlarini hisobga olgan holda hisoblanadi.


Aslida, yuqoridagi tushunchalar bo'yicha, Chorvoq suv omborining turistik zonasining geokologiyasiga zarar yetkazmasdan yoki minimal zarar yetkazib, texnogen va barqaror rivojlanayotgan ekotizimlarning birgalikda yashashi zarurligiga asoslanadi: rekreatsion ta'sirlarni nazorat qilish uchun sanoat miqyosida qurilish taqiqlangan maxsus "rekreatsion zonalarini" ajratish, faol obodonlashtirishni amalga oshirish, geokologik vaziyatni yaxshilash; nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar uchun ham asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun haqiqiy imkoniyatlarni saqlab qolish kerak.

Shunday qilib, hududning geokologik va iqtisodiy muvozanati konsepsiyasini aniqlash uchun tog' jinslarining turlari va toifalari bo'yicha rel'yefdagi tarqalishi, atrof-muhit hududlari maydoni, yer maydoni antropogen yuklamalarni turi va darajasi, hududning geokologik va iqtisodiy holatining intensivligi, integral antropogen yuk, hududning tabiiy muhofazasi kabi tavsiflardan foydalanish kerak.

Dissertatsiyaning "**Chorvoq qirg'oq zonalarining geologik va muhandis-geologik sharoitlarini o'rganish uchun kompleks yondashuv**" nomli uchinchi bobi ikki qismdan iborat. Birinchisi, Chorvoq suv omborining qirg'oq zonasidagi geologik va muhandis-geologik jarayonlar va hodisalarining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflashga bag'ishlangan. Suv ombori qirg'og'ining abraziyasi yoki qirg'oqning qayta yemirilish jarayonlarining rivojlanishi, suv sathining rejimi va suv omborining ekspluatatsiyasi bilan chambarchas bog'liq. Shunday qilib, suv omborining ekspluatatsiyasining birinchi yillarida (1970-1973) perimetr bo'ylab 5-10 metrli suv sathining o'zgarishi bilan qirg'oqdagi lyossimon suglinok va supeslarning intensiv abraziyalanishi  $57-70 \text{ m}^3/\text{p.m}$  ni tashkil qilgan. Ikkinchi davr – 1974-1977 yillarda intensiv abraziyalanishi kamroq sodir bo'lib, hajmi  $34-35 \text{ m}^3/\text{p.m}$  ni tashkil qilgan (R.A. Niyazov va boshqalar, 1991).


Shu bilan birga, Pskom, Chotqol daryolari terrasalarining yon tomonlarida, Chorvoq suv omborining kengaygan ko'l qismiga quyiluvchi soylarining chiqish konusida, suv bosgan jarliklarning yon tomonlarida abraziya jarayoni kuzatiladi. Uchinchi davr 1978-yilga to'g'ri keladi va suv ombori o'z NTDsiga (normal to'lish darajasi) yetdi, bu 10 kun davom etdi va  $32-41 \text{ m}^3/\text{p.m}$  hajmda abraziya jarayoniga olib keldi. Bu davrda yuqori terrasalar, pog'onalar, jarliklar va Chotqol daryosining ikkita terrasasi bilan birga Burchmulla qishlog'i to'liq suv ostida qoldi. So'nggi, to'rtinchi davr (1983-1988 yy.) suv ta'minotining kamligi sababli, bu davrda qirg'oq chizig'ining yuvilishi  $20-32 \text{ m}^3/\text{p.m}$  ni tashkil etdi va davr oxiriga borib

qirg'ochlarning qayta yuvilishi  $6-10 \text{ m}^3/\text{p.m.}$  ni tashkil etdi. Chorvoq suv omborining yuqorida sanab o'tilgan ekspluatatsiya davrlari suv ombori qirg'och chizig'ining vertikal yo'nalishda 2-5 dan 30-50 m gacha, gorizontal yo'nalishda esa 8-10 km gacha (1-rasm) o'zgarishi haqida xulosa chiqarish imkonini berdi.



**1-rasm. Chorvoq suv ombori qirg'og'idagi abraziyalanish jarayonlarining 2-5 m (a) dan 30-50 m (b) gacha vertikal ishlanish ko'rinishi (Ya.S. Ermatova fotosurati, 2024 y.)**


Izlanishlar natijalariga ko'ra hududda yuvilishga kam uchraydigan qattiq tog' jinslari – porfirritlar va dioritlar; o'rtacha yuviladigan tog' jinslari – tuflar, dolomitlar, marmarlar, ohaktoshlar va konglomeratlar; oson yuviladigan tog' jinslari – qumlar, lyosslar, lyossimon suglinok va supeslar, gillar va alevrolitlar ajratilgan. Bundan tashqari, tashqi ta'sirning omillari nurashda muhim rol o'ynashi ta'kidlangan. Qoyalar soya tomonining yon bag'irlari zich o'simliklar bilan qoplanib, denudatsiya jarayonlaridan va kimyoviy nurashdan himoya qiladi (2-rasm. A, B, C, D). Va aksincha, quyoshli tomonning yon bag'irlarida nurash jarayonlari keng tarqalganligi kuzatilgan.



**2-rasm. Neogen konglomeratlari va gilli mergellar (A), devon qumtoshlari (D), to'rtlamchi davrga mansub qiya sathning tarkibida kam silliqlangan graviy va galka qo'shimchali lyossimon suglinoklar (C) quyi to'rtlamchi va yuqori neogen tog' jinslarining butalar bilan bog'liq (D) nurash jarayonlari (Ya.S. Ermatova fotosurati, 2024 y.)**

Chorvoq suv omborining qirg‘oq zonasida jarliklarning shakllanishi lyoss va lyossimon tog‘ jinslari tarqalgan hududlarga to‘g‘ri keladi, shuningdek, Sijjak, Yakkatut, Boladala, Nanay va boshqalar aholi punktlari hududlaridagi bo‘r va neogen davrlariga mansub yotqiziqalarda ham kuzatiladi. Ularning rivojlanishi ko‘p jihatdan atmosfera yog‘inlariga, qorlarning erishi, vaqtinchalik suv oqimlari, buloqlar va muhandis-texnik oqova suvlariga bog‘liq (2-rasm).

Ushbu holat suvlarning harakati natijasida dastlab yuvilish jarliklarni hosil qiladi, keyinchalik ular qiya sath bo‘yicha pastga cho‘zilib, kengayib boradi, natijada bir necha yuz metr uzunlikdagi jarliklarni hosil qiladi (3- rasm). Jarlikning rivojlanishi yangi yuvilish o‘pirilish ko‘rinishga ega, ya’ni ularning morfologik elementlari, masalan, ajralgan yoki cho‘kish natijasida hosil bo‘lgan zinapoya shaklidagi qirralar va vallar harakat natijasida namoyon bo‘ladi va nurash, eroziya jarayonlari bilan sezilarli darajada o‘zgaradi.



**3-rasm. Chorvoq suv ombori hududidagi jarliklar** (Ya.S.Ermatova surati, 2023): *Yusufxona-Burchmulla avtomobil yo‘lining o‘ng tomonida (A va B), Chorvoq suv omborining o‘ng tomonida Yakkatut qishlog‘i (C, D) hududidagi jarlik hosilasi*

Bu suvlarning harakati dastlab jarliklar hosil qiladi, ular keyinchalik qiyalik bo‘ylab cho‘ziladi va kengayadi, natijada bir necha yuz metr uzunlikdagi jarliklar shakllanadi. Jarlar o‘z rivojlanish bosqichlariga ega: bu bosqichlarda harakatlanish sodir bo‘ladi yoki vaqtincha to‘xtaydi, biroq bu holat bord (qiyalik)larning yemirilishi va tubining eroziyasidan bir yil avvalgacha davom etadi.

Yakkatut qishlog‘idan sharqda va Sijjak qishlog‘idan shimolda joylashgan daralarning yonbag‘irlari barqaror, buning uchun so‘nggi bir yilda biror bir ko‘chish sodir bo‘lganligi haqida hech qanday dalil yo‘q. Ular jarlikning paydo bo‘lish omillarini va harakatni tiklash imkoniyatini saqlab qolgan holda vaqtincha barqaror bo‘lishi mumkin. Eroziya yoki siljishlarni keltirib chiqaradigan omillar tabiiy yoki sun‘iy yo‘l bilan to‘xtatilgan bo‘lsa, ular barqaror holatga o‘tadi. Shu bilan birga,

jarliklar uzoq vaqt barqaror bo‘lib, hamma joyda eroziya va ob-havo ta‘sirida asta-sekin o‘zgarib turadi va o‘simliklar bilan qoplanadi, bu esa keyingi faollashuv belgilarini yashirib yuboradi. Yuqoridagi tahlillar asosida, Chorvoq suv omborining sohilbo‘yi zonasida strukturaviy tuzilish va nisbiy balandliklarga ko‘ra jarlarni shakllanish bosqichlari aniqlanib, jar paydo bo‘lishidagi asosiy sabablarining tasnifini ishlab chiqildi.

Tabiiy geologik jarayonlar bilan solishtirganda, uzoq vaqt davomida insonning relyef shakllanishidagi roli unchalik muhim emas, deb hisoblangan. Biroq, aholi sonining ortishi va texnik taraqqiyotning jadallashuvi natijasida, bugungi kunda insonning relyefga ta‘siri sezilarli darajada kuchaygan. Buning natijasi sifatida antropogen relyef – ya‘ni inson xo‘jalik faoliyati natijasida yaratilgan yoki jiddiy o‘zgartirilgan relyef shakllari majmuasi shakllanmoqda. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi: to‘liq inson tomonidan qayta yaratilgan relyef shakllari; shuningdek, inson faoliyati ta‘sirida tabiiy jarayonlarning keskin o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan relyef shakllari. Kelib chiqishiga ko‘ra barcha antropogen rel’yef shakllari ikkita asosiy guruhga bo‘linadi: inshootlarni qurish jarayonida hosil bo‘lgan texnogen rel’yef va qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy faoliyat natijasida hosil bo‘lgan agrogen rel’yef.

Bu shakllanishlar inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, avtomobil yo‘llari qurilishi va boshqa ijtimoiy ehtiyojlari uchun yer yuzasida olib borilgan ishlar natijasida yuzaga kelgan. Chorvoq suv omborining qirg‘oq zonasi geologik-litologik sxematik xartasida bunday joylar qulash, ko‘chki va sel xavfi mavjud hududlar sifatida ajratib ko‘rsatilgan.

Texnogen rel’yef – bu foydali qazilmalarni qazib olish, gidrotexnik inshootlar qurilishi (masalan, Pskom va Chotqol daryolari yuqori oqimlarida), shaharsozlik ishlari va yo‘l qurilishi natijasida tadqiqot hududida shakllangan relyef shakllarini o‘z ichiga oladi. Bunday jarayonlar: biota (tirik organizmlar majmuasi), hayvonot dunyosi, va boshqa tirik tizimlarning mavjudlik uchun zarur bo‘lgan mikroiklimiy sharoitlarini o‘zgartiradi. Natijada, baliqlar joylashuvi o‘zgaradi, suv haroratning o‘zgarishi esa gidrobiotaning tur tarkibiga ta‘sir qiladi (baliqlar, ichaksimon hayvonlar, tikanaksimonlar, ko‘pchilik qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va boshqalar kiradi). Yuqoridagilardan tashqari tadqiqot hududida sanoat korxonalari, gidrotexnika inshootlari va sayyohlik majmualarining keng tarmog‘i (dam olish zonalari ko‘rinishida) faoliyat olib boradi.



Bu holat, o‘z navbatida, ko‘chki massalari tarkibidagi tuproqlarning to‘liq konsolidatsiya jarayonini hali yakunlamaganligi bilan bog‘liq bo‘lib, iqlim omillari, o‘zgaruvchan yer usti va yer osti suvlarining faol ta‘sirida kuchli tekislik va jarlik eroziyasi yuzaga keladi. Bunday eroziya, ayniqsa cho‘kindilarda va kanyon shaklidagi rel’eflarda kuzatiladi (3-rasm) va kamdan-kam hollarda sel oqimlari shakllanishi bilan kechadi. Ko‘pgina hollarda, sel oqimlari sezilarli darajada onson parchalanadigan tog‘ jinslari to‘plangan joylarda, ma‘lum gidrogeologik sharoitlarda yuzaga keladi. Ular odatda sel o‘zanlari yoki sel havzalarida hosil bo‘ladi. Sel markazlari esa o‘z navbatida sel kesiklari, chuqurchalar va tarqoq sel hosil bo‘lish markazlariga bo‘linadi.

Dissertatsiyaning **“Chorvoq suv ombori kurort zonalari hududini texnogen ta’sirlarga bardoshlilik darajasiga ko‘ra muhandislik-geologik rayonlashtirish”** nomli to‘rtinchi bobi ikki qismdan iborat. Birinchisi, Chorvoq suv omborining qirg‘oq zonalariga ta’sir qilish hududlarini rayonlashtirishga bag‘ishlangan. Chorvoq suv omborining qirg‘oq zonalari va unga tutash hududni o‘rganish jarayonida dissertant suv omborining uchta ta’sir zonasini aniqladi, unda geologik va muhandis-geologik jarayonlar va hodisalarning tabiati, darajasi va fazoviy yo‘nalishining o‘zgarishi suv omborining ekspluatatsiyasiga, ya’ni suv ombori sathining to‘lishi va kamayishiga bog‘liqligi aniqlandi.

